

O‘ZBEK TILIDA MIFOTEONIMLARNING QO‘LLANISHI

Xabibullayeva Dilobar Shukurrullo qizi

Filologiya fakulteti, 2-kurs ona tili va adabiyoti (rus tili) talabasi

@Shukurjonovna +99890 781 30 78

Sharafutdinova N

Ilmiy rahbar: . FarDU o‘zbek tili aadabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida qo‘llanilgan o‘zlashgan teonimlar masalasi O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari” asarlari hamda Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani misolida tahlil qilinadi. Maqolada teonimlarning badiiy matndagi o‘rni, ularning qahramon nutqi va muallif g‘oyasini ochib berishdagi ahamiyati yoritiladi. Tahlil jarayonida teonimlarning asosan xalqona tafakkur, diniy dunyoqarash, taqdirga ishonch va ma’naviy qadriyatlarini ifodalash uchun xizmat qilgani aniqlanadi. Shuningdek, ushbu birliklar orqali asarlarning milliy ruhini kuchaytirish, obrazlar xarakterini chuqurlashtirish va tarixiy hamda ijtimoiy muhitni aks ettirish masalalari ko‘rsatib beriladi. Maqola natijalari o‘zlashgan teonimlarning o‘zbek badiiy adabiyotida muhim lingvistik va estetik vosita ekanini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zalar: Xudo, Parvardigor, Olloh muqaddas nomlar, teonimlar

Abstract: This article analyzes the use of borrowed theonyms in Uzbek literature based on O‘tkir Hoshimov’s works “Between Two Doors” (Ikki eshik orasi), “The Affairs of the World” (Dunyoning ishlari), and Abdulla Qodiriy’s novel “Bygone Days” (O‘tgan kunlar). The study examines the role of theonyms in literary texts and their significance in revealing characters’ speech and the author’s artistic intention. The analysis shows that theonyms are mainly used to express folk worldview, religious perception, belief in destiny, and moral values. In addition, these linguistic units contribute to strengthening the national spirit of the works, deepening character portrayal, and reflecting the historical and social environment. The results of the study demonstrate that borrowed theonyms function as important linguistic and aesthetic devices in Uzbek literary discourse.

Keywords: God: the Creator (Parvardigor), Allah, sacred names, theonyms.

O‘zlashgan teonim — bu boshqa til va madaniyatlardan o‘zbek tiliga kirib kelgan, Xudo yoki ilohiy kuchlarni ifodalovchi muqaddas nom va atamalardir. Teonim (yunoncha theos — “xudo”, onyma — “nom”) — Xudo, Tangri, Parvardigor, Olloh kabi yaratguvchi nomlarni til birliklardir.

O‘zlashgan teonimlar arab, fors tillaridan o‘zbek tiliga kirib, xalq nutqi va adabiy tilida mustahkam o‘rnashib qolgan. Hozirgi kunga kelib, o‘zlashgan teonimlar, asosan, Xudo va Olloh xalq nutqida o‘z qatlamga oid bo‘lgan Tangri so‘ziga nisbatan faol qo‘llanmoqda. “Dunyoning ishlari” qissasida bunday teonimlarning ko‘plab qo‘llanishini kuzatish mumkin. Misol uchun, “Xudoyo umringdan baraka top” (33-bet). Bu teonimni qo‘llash bilan xalq xarakteriga xos bo‘lgan odamlarga chin dildan tilak bildirish nazarda tutilgan. Yoki

Jon bolam -jonim bolam,

Allohga topshirdim seni,
Ohim Alloh yetmadi,
Tuproqqa topshirdim seni.

Adib xalq og'zaki ijodi janri bo'lgan "Alla" misralari orqali onaning nolalari Allohga yetib borishini umid qilgani, ammo ming faryod chekib jondan aziz bolasini tuproqqa topshirganini aks ettiradi. Odamzod boshiga musibat tushganida yaratuvchihga nola qiladi. Parchada arab tilidan o'zlashgan "Alloh" so'zi qo'llangan. Demak, 20-asrning o'rtalariga kelib, Alloh teonimi faollasha boshlagan. "Kimsanim, jon bolam, kechir, gunohkor onangni! Bilaman, Xudo ko'rsatmasin, shahid ketgan bo'lsang, arvohing chirqillaydi". Shu yerning o'zida Xudo so'zi ham parallel ravishda qo'llanganini ko'rish mumkin. Bu ikki o'zlashgan teonim o'z qatlamga oid Tangri so'ziga nisbatan faolroq ekanligi ma'lum bo'ladi.

Teonimlar orqali turli holatlarni, masalan, affekt holatni, quvonch, qayg'u, g'azab, jahl, qahr, mehr va shavqatni ochiq ifoda etish xalq o'rasida keng tarqalgan. Masalan, "Xudoning ham bandalariga atagan azobi ko'p ekan" ("Dunyoning ishlari" qissasi 36-bet). Ushbu teonimda odamlarning boshiga og'ir musibat tushganda Yarauvchini eslab, unga nola qilishi, yolvorib murojaat qilishlari yoritib berilgan. Yoki "Xudoyo bo'yniginang hazrati Alining qilishida kesilmasa, u dunyo-bu dunyo rozimasman-a!" (39-bet). Bu teonim orqali Ollohga iltijo qilib, uning albatta, yomonlikka jazo berishi, uning o'z jazo berishi "xudoyo" so'zi orqali ifodalangan. Bunday teonimlar xalq nutqida ko'plab qo'llanishini shu asar misolida ko'rish mumkin.

Bundan tashqari adibning "Ikki eshik orasi" asari personajlari tomonidan turli vaziyatlarda qo'llangan Alvastiko'prik, xudo, jin-ajina kabi teonim va mifonimlarni ko'rish mumkin. "Hammasiyam mayli-ku, Alvastiko'prikdan o'tamiz. Shunisi ayniqsa yomon "Qora ammam"ning aytishiga qaraganda, urush paytida Alvastiko'prikda jin-ajinalar ko'payib ketgan ekan. Bir marta Robi opamgayam daf qilibdi. Opam zo'rg'a qochib qutulgan emish ("Ikki eshik orasi" romani, 18-bet). "Hecham charchaganim yo'q-da! Qo'rqyabman. Lekin dadamga "qo'rqyabman" deyishdan qo'rqaman. Bir marta Alvastiko'prikda ajina bormish deganimda, dadam solib bergan: "Bekor gap, hech qanaqa ajina-pajina yo'q, alvasti cho'pchaklarda bo'ladi, o'g'il bolasan, unaqa qo'rqoq bo'lma", - degan. Bilaman dadam yolg'on gapirmaydi. Ammo, baribir Alvastiko'prikning ovozi kelishi bilan "charchab" qolaman. Yuqoridagi ikkala gaplarda jin-ajina, Alvastiko'prik, alvasti kabi mifonim so'zlari qo'llangan. Jin: Arab tilidan o'zlashgan bo'lib, islomgacha bo'lgan e'tiqodlarda ham, islom dinida ham mavjud bo'lgan ko'zga ko'rinmas, olovdan yaratilgan mavjudot. Ushbu sartlar orqali yozuvchi jin-ajinalar va alvastilarning yovuzlik olib kelishi, yo'ldan ozdirishi yani ular faqatgina yomonlik yo'lida xizmat qilishini yetkazib bergan, odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalar undan qo'rqishgan.

Alvasti mifologik obraz bo'lib, u Markaziy Osiyo xalqlari (o'zbek, qozoq, qirg'iz va boshqalar) mifologiyasida va xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan yovuz ruh yoki g'ayritabiiy mavjudot tushunchasini anglatuvchi so'z. Asarda Alvasti so'zidan yangi so'z, ya'ni Alvastiko'prik so'zi yasalgan, chunki turkiy xalqlar mifologiyasida alvastilar tashlandiq joylarda, ko'prik va tol yoki yong'oq daraxtiga makon qurganlar. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanida aynan Alvastiko'prikda go'yoki g'ayritabiiy



voqelar ro'y beradi. Xusisan, Robiyaga ham aynan shu yerda Umar zakunchi tomonidan tajavuz qilinadi, Husan duma ham shu joyda vafot etadi. Buni Muzaffar nutqidan so'zlangan: "Husan buvam bilan Oqsoqol buvamga xuddi shu yerda ajina daf qilgan-da. Qora ammam aytib bergan. Oqsoqol buva ham, Husan buvam ham polvon bo'lishgan ekan. Ikkalasi yo'lni to'sib qo'ygan alvastini Bo'rijarga uloqtirib yuborishibdi-yu, o'zlari poyezd tagida qolishibdi. Poyerd ichida o'zimizning askarlarimiz bor ekan-da! Alvastini temiryo'ldan olib tashlamasa, poyezd ag'darilib ketarkan. O'shanda Oqsoqol buva ammalab tirik qopti-yu, Husan buvam o'libdi. Aytmoqchi, o'shanda alvastini jarga tashlashda Robi opam bilan tabib buvaning Olimjon degan o'g'liyam yordam berishgan ekan. Robi opamdan shuni so'rasam, negadir aytmaydi. "Qo'ysang-chi, o'sha gaplarni", deb qo'ya qoladi (O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi" 19-20-bet).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida mavjud teonim va mifonimlar xalq orasida faol qo'llanib kelinadi. Garchi o'z qatlamga oid bo'lgan Tangri, Egam so'zlari o'zlashgan Xudo, Alloh kabi teonimlarga nisbatan nafaol qo'llansada, xalq tilida "Yaratgan Egam", "Tangri o'zi qo'llasin" birikmalari ko'rinshida qo'llanib kelinmoqda. Shuningdek, mifonimlar xayoliy mavjudot bo'lsada, ular turkiy xalqlar, shuningdek, o'zbek xalqi tafakkuri mahsuli sifatida tilda yashab kelmoqda.

O'zbek adabiyotida o'zlashgan teonimlar badiiy asarlarda muhim maqsad bilan qo'llanadi. Badiiy asarda uchraydigan teonimlar asosan xalqning diniy tasavvuri, milliy dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳошимов, Ў. Дунёнинг ишлари. Тошкент: Шарқ нашриёти, 2016.
2. Исломов, Н. Ўзбек халқ мақолларида теонимлар, 2019.
3. Раҳмонов, А. Ўзбек тилида диний лексика: тизим ва маъно масалалари, 2016.
4. Турсунов, У. Туркий тилларда теонимлар тарихи ва семантикаси. Тошкент: Фан. 2005.